

Date: 1st November-2025

**KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUVNING
ROLI**

Sobirova Kamola Abduxamid qizi

Millat umidi universitida biznes boshqaruv fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion boshqaruvning o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda innovatsion menejment konsepsiyasi, yangi texnologiyalarni joriy etish, boshqaruv jarayonlarida raqamli yechimlardan foydalanishning iqtisodiy samarasi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida kichik biznesni innovatsion rivojlantirishning muammolari va istiqbollari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: innovatsion boshqaruv, kichik biznes, raqamli iqtisodiyot, menejment, tadbirkorlik, raqobatbardoshlik.

Аннотация: В статье анализируются роль и значение инновационного менеджмента в повышении конкурентоспособности малого бизнеса. В исследовании раскрывается понятие инновационного менеджмента, внедрение новых технологий, экономическая эффективность использования цифровых решений в процессах управления. Также раскрываются проблемы и перспективы инновационного развития малого бизнеса в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: инновационный менеджмент, малый бизнес, цифровая экономика, менеджмент, предпринимательство, конкурентоспособность.

Abstract: This article analyzes the role and importance of innovative management in increasing the competitiveness of small businesses. The study shows the concept of innovative management, the introduction of new technologies, the economic effectiveness of using digital solutions in management processes. It also reveals the problems and prospects of innovative development of small businesses in the conditions of Uzbekistan.

Keywords: innovative management, small business, digital economy, management, entrepreneurship, competitiveness.

Kirish: Kichik biznes O'zbekiston iqtisodiyotining eng muhim bo'g'ini bo'lib, milliy yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning qariyb 55 foizini, bandlikning esa 75 foizini ta'minlaydi. Shu bois, kichik biznesni barqaror rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi va ijtimoiy farovonligining asosi hisoblanadi. So'nggi yillarda bu sohada innovatsion boshqaruvga asoslangan yondashuvlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev "2022–2026-yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish zarurligini ta'kidlab o'tgan [1].

Shuningdek, "Innovatsion rivojlanish to'g'risida"gi Qonun (2018-yil 24-iyul) innovatsion faoliyatni boshqarish, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va yangi



Date: 1st November-2025

texnologiyalarni ishlab chiqishning huquqiy asoslarini belgilab berdi [2]. Mazkur hujjatlar kichik biznes subyektlari faoliyatiga innovatsion boshqaruv elementlarini tatbiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Har qanday mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining darajasi ayni shu mamlakatda tadbirkorlik qay darajada taraqqiy etganligidan dalolat berib turadi. Sir emaski, iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi uning tarkibidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushining ko'payib borishi bilan belgilanadi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining kun sayin ko'payib borishi esa, o'z navbatida, mamlakatda yaratilgan ishbilarmonlik muhitiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 53,3 foizni tashkil etmoqda.

Xalqaro amaliyotda yirik moliya muassasasi hisoblangan Jahon banki tomonidan kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan ishlar ko'lami yildan -yilga ko'payib bormoqda. Ushbu ishlar natijasida jahon amaliyotida, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, kreditlardan samarali foydalanish bilan bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Lekin, shunga qaramasdan banklar tomonidan kichik biznes sub'ektlariga xizmat ko'rsatish madaniyati va bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda. Xususan, kreditlarni ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilishda vakolatlarning haddan tashqari markazlashganligi bosh banklar va ularning filiallari o'rtasidagi javobgarlikning aniq chegaralanishiga to'sqinlik qilayotganligi, kredit buyurtmalarini ko'rib chiqishning murakkablashgan mexanizmlari kreditlarni tezkor olish imkoniyatini chegaralayotganligi, kichik biznesni kreditlashning dolzarb muammolari yuzasidan izlanishlar olib borish, xalqaro tajribani o'rganish va uni respublika bank xizmatlari bozorida qo'llash yuzasidan takliflar ishlab chiqish muhim omil hisoblanadi.

Kichik biznesni moliyalashtirish dasturi doirasida bank sizning e'tiboringizga biznes uchun keng ko'lamdagi kreditlarni taklif etadi.

Kreditlarimizning turlari biznesni rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan istalgan masalalarni hal qilishga imkon beradi.

Kredit taqdim etish to'g'risidagi qaror qabul qilishda Ipoteka-bank mijozning haqiqiy holati to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi. Bunda e'tibor rasmiy ko'rsatkichlarga emas, balki moliyalashtirish nazarda tutilgan biznesning rivojlanish istiqbollariga qaratiladi.

Har bir shaxsga bo'lgan alohida yondashuv Ipoteka-bankka kichik biznes sub'ektlari uchun eng qulay shartlarda kreditlarni taklif qilishga imkon beradi.

Kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi bozor kon'yunkturasi va qarzdorning moliyaviy holatidan kelib chiqqan holda o'rnatiladi. Foizlar kredit qarzdorligining qolgan qismiga hisoblanadi, bu mijozlarga qo'shimcha xarajatlar amalga oshirmaslikka imkon beradi.

Kichik biznes korxonalari faoliyatining dastlabki bossichlarida moliyaviy resurslarga ehtiyoji yuqori bo'lmasada, ular rivojlanib faoliyatini kengaytirib borishi



Date: 1st November-2025

davomida ulara aylanma mablag'larni ko'paytirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish uchun investisiya resurslariga talab yuzaga keladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda kichik biznes sub'ektlari erkin bozor munosabatlariga asoslangan xo'jalik yuritish tizimining muhim tarkibiy elementlaridan biri sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes sub'ektlari tashqi va ichki muhitning o'zgaruvchan shart-sharoitlariga tez va oson moslasha olish qobiliyatiga ega. Bu xususiyat raqobat muhiti rivojlanishiga, iqtisodiy tizimni tuzilmaviy jihatdan qayta ko'rish jarayonlarini amalga oshirishga, innovasion texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishga turtki beradi.

Kichik biznes sub'ektlari ijtimoiy bandlik muammosini ijobiy hal etishga yordam berishi, jamiyatda ijtimoiy tanglikni kamaytirishga imkon berishini inobatga olsak, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-kuvvatlash borasida amaldagi moliyalash mexanizmini takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Mazkur mexanizmdan samarali foydalanish hisobiga mamlakatimizda faoliyat yurituvchi kichik biznes sub'ektlarining sonini oshirish mumkin. Bu mamlakatimizning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshlik imkoniyatlarini kuchaytirishga va mavqeini oshirishga xizmat qiladi.

Kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirishda bank sektorining alohida o'rni bor, chunki aynan banklar kichik biznes sub'ektlarining iqtisodiy faoliyati samarali kechishi uchun zarur bulgan moliyaviy xizmatlarni taklif etadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tmoqchimizki, bank sektori kichik biznes sub'ektlariga samarali yordam berishi uchun bir qator muammolarni hal etish kerak. Ayni vaqtda kichik biznes sub'ektlariga, ayniqsa endi faoliyat yuritishni boshlagan tadbirkorlik sub'ektlariga banklardan uzoq muddatli kredit olish anchagina murakkab, chunki ular olinadigan qarz evaziga garov sifatida taqdim etish uchun yetarlicha bo'lgan mol-mulkka ega emas. Bundan tashkari, kichik biznes sub'ektlarini moliyalashtirish tijorat banklari uchun tashkiliy harajatlari yuqori jarayon xisoblanadi.

Hozirgi kunda Respublikamizdagi barcha tijorat banklari o'z kredit va mikrokreditlari bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil etish va ular faoliyatini yanada kengaytirishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Jumladan ATIB "Ipoteka bank" tomonidan 2022-yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga ajratilgan mikrokreditlarning eng katta salmog'i aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan bo'lib, miqdori 122 mlrd. so'mga teng. Undan keyingi o'rinlarda qurilish va xizmat ko'rsatish hamda sanoat sohalariga ajratilgan kreditlar egallagan. ATB "Mikrokreditbank" misolida ko'radigan bo'lsak, kichik biznes va xususiy biznes sub'yektlariga ajratilgan jami kreditlar va mikrokreditlar nisbati quyida o'z aksini topgan: Mikrokredit qarz oluvchiga kredit ajratilayotgan loyihaning o'zini-o'zi qoplashi hisobga olingan holda aylanma mablag'larni to'ldirishga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga beriladi.

Mikromoliyalash sub'yektlari banklar, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar bo'lishi bilan birga, shulardan tijorat banklari mikrokreditlar ajratish bo'yicha yetakchilik qilib kelmoqda. Kreditlarni rasmiylashtirishda qarz oluvchi ariza bilan birgalikda bir qancha



Date: 1st November-2025



hujjatlar bilan bankka murojaat qiladi. Ariza 3 ish kuni davomida ko'rib chiqiladi. Undan so'ng majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida ta'minot turlaridan biri taqdim etiladi. Kredit hisobiga sotib olingan mulk ushbu kredit bo'yicha o'z qiymatining 80 foizi miqdorida garov narsasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Hujjatlar ko'rib chiqilib, kredit berish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilinganda, mijoz va bank o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi va kreditning muddati, miqdori hamda foiz stavkasi belgilanadi. Shundan so'ng mijozga kredit hisobvarag'i ochilgan holda kreditlar naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda shu hisobvaraqdan o'tkazib beriladi.

Bank tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash uchun milliy valyutada kreditlar ajratiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari hamda oilaviy korxonalar kreditlash ob'ektlari hisoblanadi.

Kreditlar qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi.

Kreditlar kreditlanayotgan tadbirning o'zini-o'zi qoplashini hisobga olgan holda quyidagi muddatlarga beriladi:

- qarz oluvchi o'z faoliyatini boshlashi uchun aylanma mablag'larni shakllantirish va investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga - 12 oy muddatgacha;

- aylanma mablag'larni to'ldirishga - 18 oy muddatgacha;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga - 24 oy muddatgacha.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori kredit shartnomasiga muvofiq belgilanadi.

Qarz oluvchi kredit olish uchun xizmat ko'rsatuvchi tijorat bankiga quyidagi asosiy hujjatlarni taqdim etadi:

- ariza;

- qarz oluvchining bank hisobvarag'iga pul tushumlari (pul oqimi) prognozi ko'rsatilgan biznes-reja;

- qarz oluvchining taqdim qilgan tegishli davlat soliq inspeksiyasiga oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi (1-son shakl), 90 kundan ortiq muddatdagi qarzlariga doir solishtirish dalolatnomalari, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-son shakl), yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaliklari bundan mustasno;

Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida quyidagi ta'minot turlarini taqdim etadi:

- mol-mulk va qimmatli qog'ozlar garovi;

- tijorat banki yoki sug'urta kompaniyasining kafolati;

- uchinchi shaxs kafilligi;

- qarz oluvchi tomonidan olingan kreditni qaytarmaslik xatarining tijorat banki foydasiga sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi;

Date: 1st November-2025

- ta'minotning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turlari.

Kichik biznes sub'ektlarining muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'p jihatdan xususiy tadbirkorlarning uzoq va nisbatan qisqa muddatlarda talab etiladigan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Xozirgi paytda mamlakatimiz kredit bozori institusional jihatdan rivojlanish bosqichida ekanligi, taklif etilishi mumkin bulgan moliyaviy instrument va xizmat turlarining cheklanganligi bilan harakterlanadi. Moliyaviy xizmatlar kursatish bilan shug'ullanuvchi nobank insti-tutlarining rivojlanmaganligini e'tiborga olsak, bu hol pirovardida Real iqtisodiyot sektorlarini etarli darajada moliyalashga tusqinlik qilmoqda.

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashning xozirgi boskichida mavjud bulgan kuyidagi muammolarni sanab o'tishimiz mumkin:

- kichik biznes sub'ektlarini kreditlash mexanizmlarining etarlicha samarador emasligi;
- kichik biznes sub'ektlarining riskla-rini suturtalash mexanizmlarining yaxshi rivojlanmaganligi;
- o'zini-o'zi moliyalashtirish mexanizmlarining sust rivojlanganligi (buni kredit uyushmalari faoliyat yuritmasligi, jamoaviy investisiya jamtarmalari va boshka shu kabi tashkilotlarning rivojlanmaganligida xam kurish mumkin);
- kichik biznes sub'ektlari uchun kredit resurslaridan foydalanish shartlari nok,u-layligi;
- kreditlash jarayonida kredit riskini kamaytirish mexanizmlarining cheklanganligi;
- garovga kuyilishi mumkin buladigan mol-mulk etishmasligi sababli aksariyat kichik biznes sub'ektlarida investision, shu jumladan bank kredit resurslaridan foydalana olish imkoniyatlarining yo'qligi va boshqalar.

Moliya bozorlarida, xususan kredit xizmatlarini taqdim etish bozorida, bank tizimi tomonidan takdim etiladigan xizmatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligining asosiy sabablari mutaxassislar tomonidan yuqori darajali risklarning mavjudligi xamda kredit oluvchilarda garovga ko'yilishi mumkin bo'ladigan mol-mulkning yo'qligi aloxida ta'kidlanmokda. Bu tabiiy, chunki ishlab chikarishda tezlikda realizasiya kilinishi mumkin bulgan asosiy fondlarni shakllantirish uchun kamida 5-10 yil davomida faoliyat yuritish talab eti-ladi.

N.Yamori (N.Yamori) Yaponiyada kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirishning davlat kredit kafolati tizimining axamiyatini tahlil kilgan. Moliyaviy institutlar kichik biznes sub'ektlariga kreditlarni rasmiylashtirishdan avval ulardan kredit kafolati fondi (KKF)ga (Credit Guarantee Corporation) ariza bilan murojaat kilishni suraydilar. KKF ushbu murojaatga javoban kreditni kafolatlatlashini bildirsa shun-dan sung bank kreditni rasmiylashtiradi. Bunda kompaniya kredit foizidan tashkari Kkfga kafolat tulovlarini banklar orkali amalga oshiradi. Ushbu kompaniyalar bankrot xolatini e'lon kilgan takdirlarida kreditor bank zararini KKF tomonidan koplal berilishini suraydi. Yaponiya moliya korporasiyasi orkali tutridan tufri subsidiyalar, tulovlar va sufurta kilish bilan kullab-kuvvatlaydilar. Kredit kafolati tizimi kichik biznes sub'ektlarini kullash uchun



Date: 1st November-2025

tuzilgan bulib, kredit oluvchilar bir nechta jix,atlar, jumladan, biznesning kattaligi, tarmok sox,asi kabi talablarga javob berishlari kerak.

Yuqorida aytib o'tilgan fikr-mulohazalarni e'tiborga olib, kichik biznes sub'ektlarining iqtisodiy rivojlanishiga turtki berish uchun bevosita emas, balki bilvosita rag'batlantirish uslublarini ishlab chiqishni taklif etmoqchimiz. Bilvosita rag'batlan-tirish uslublari haqida gap ketganida kichik biznes sub'ektlari tijorat banklaridan investision kreditlar olishi va kreditda davlat kafil sifatida ishtirok etishi mumkin. Davlat organlari bank xamda kreditlash tizimlari bilan o'zaro hamkorlikda chora-tadbirlar ishlab chiqishsa, pirovardida kichik biznes sub'ektlarining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish muammosini xal etishga muvaffaq bo'lishi mumkin bo'lardi.

Bir so'z bilan aytganda, tijorat banklari hamda kichik biznes sub'ektlarining kredit munosabatlari sohasida davlat kafolati instituti yaratilishi lozim. Kafolat instituti yaratilsa, mutasaddi davlat organlari milliy bank va kredit muassasalarini kichik biznes sub'ektlariga kredit ajratishga undashi mumkin buladi. Bu urinda, davlat uz zimmasiga kafillikni olib karz majburiyatlari doirasida kichik biznes sub'ektlarining iqtisodiy faoliyati uchun zarur investision mablatlarning jalb etilishiga sharoit yaratib beradi.

Innovatsion boshqaruv kichik biznes korxonalarining rentabelligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Masalan, 2024-yil yakunlariga ko'ra, raqamli texnologiyalarni joriy etgan kichik korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligi 17 foizga, eksport hajmi esa 12 foizga oshgan. Bundan tashqari, elektron hisob-kitob tizimlari, CRM-platformalar va avtomatlashtirilgan marketing vositalari orqali operatsion xarajatlar 8–10 foizga kamaygan.

O'zbekistonning "Innovatsion rivojlanish strategiyasi – 2030"da kichik biznes subyektlarida innovatsion menejmentni joriy etish bo'yicha alohida dasturlar belgilangan bo'lib, bu raqamli transformatsiyaning muhim qismi hisoblanadi [3].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik biznesda innovatsion boshqaruvni tatbiq etishda bir qator to'siqlar mavjud:

- moliyaviy resurslarning cheklanganligi;
- ilmiy-tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilmasligi;
- kadrlarning innovatsion tafakkuri va menejment ko'nikmalarining yetarli emasligi;
- marketing va xalqaro hamkorlikning sustligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan soliq imtiyozlari, grantlar va "startup-inkubatsiya" tizimlarini kengaytirish zarur.

So'nggi yillarda O'zbekistonda innovatsion boshqaruvni amaliyotda muvaffaqiyatli joriy etgan bir qator kichik biznes subyektlari faoliyat yuritmoqda. Masalan:

- "Artel Innovation Center" – yangi texnologiyalar asosida mahsulot ishlab chiqarishni avtomatlashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini 25% ga oshirdi.
- "AgroSoft Solutions" – qishloq xo'jaligi uchun mobil ilovalar yaratib, fermer xo'jaliklariga real vaqt monitoringi va resurs tejamkorlik imkonini berdi.



Date: 1st November-2025

• “UZPAYNET” va “Payme” singari fintech-startaplar raqamli to‘lov tizimini takomillashtirish orqali xizmatlar sohasida innovatsion menejmentni muvaffaqiyatli

Kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion boshqaruvning strategik roli shundaki, u korxonalarni bozordagi o‘zgarishlarga tez moslashishga, iste’molchi ehtiyojlarini aniqlashga va yangi mahsulotlarni tezkor ishlab chiqishga yo‘naltiradi. Innovatsion menejment tizimining muhim elementlari — *ijodiy fikrlash, loyiha boshqaruvi, marketing tahlili va risk-menejment* — kichik biznesning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida kichik biznesni innovatsion boshqarish uchun maxsus fondlar va platformalar yaratilgan. Masalan, Germaniyada “Mittelstand 4.0” dasturi kichik korxonalarga raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun subsidiya beradi; Janubiy Koreyada esa “K-Innovation Hub” orqali startaplar uchun inkubatsiya markazlari tarmog‘i faoliyat yuritadi. O‘zbekiston uchun ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish kichik biznesni tezkor transformatsiya qilish imkonini beradi.

Xulosa

Kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion boshqaruvning o‘rni beqiyosdir. U nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki korxonalarni raqobatbardosh, texnologik va eksportbop subyektlarga aylantiradi. Innovatsion boshqaruvni keng joriy etish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tijoratlashtirish zarur.

O‘zbekiston uchun innovatsion boshqaruvning ustuvor yo‘nalishlari — startap ekotizimini qo‘llab-quvvatlash, raqamli biznes modellarini kengaytirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishdir. Shu yo‘l bilan kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining barqaror va innovatsion tayanchiga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. (Қарор, 2002) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамаси “Банкларнинг кредитлари бўйича қарздорлик ўз вақтида қайтарилмаган тақдирда ундирувни қарздорларнинг ликвидли мол-мулкига қаратиш” тартиби тўғрисидаги №422-сонли қарори.
2. (Низом 2012) Ўзбекистон Республикаси Марказий Банкнинг “Кредит бюrolари ва кредит бюrolарига кредит ахборотини тақдим этувчи органлар ва ташкилотлар ўртасида кредит ахбороти алмашинуви тартиби тўғрисида” ги №2330 сонли низоми.
3. (Қарор, 2017й) Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республика банк тизимини янада ривожлантириш ва барқарорлигини ошириш чора тадбирлари тўғрисида” ги №3270-сонли қарори.
4. Абдуллаева (2017) “Кредит ва кредитлаш амалиёти”.-Т.: Иқтисод- молия, -Б. 225-228. www.bfajournals.uz. www.cbu.uz.

